

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA GURUHLI LOYIHA ISHLARINING
O‘QUVCHILAR FAOLLIGIGA TA’SIRI

Aralova Matluba Qodir qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Maqolada ona tili va adabiyot darslarida guruhli loyiha ishlarining o‘quvchilar faolligiga ta’siri nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Johnson va Johnsonning kooperativ ta’lim nazariyasi, Dale ning “tajriba konusi” modeli va Tuckman ning guruh rivojlanish bosqichlari nazariyasi asosida guruhli loyiha ishlarining o‘quvchi faolligini oshirish mexanizmlari o‘rganilgan. Qiyosiy tahlil individual topshiriqlar va guruhli loyiha ishlari o‘rtasidagi farqlarni 5 ta kooperativ ta’lim elementi bo‘yicha aniq ko‘rsatib berdi. Tadqiqot natijalari guruhli loyiha ishlarining o‘quvchi faolligini oshirishda individual topshiriqlarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega ekanligini nazariy jihatdan asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: guruhli loyiha, o‘quvchi faolligi, kooperativ ta’lim, tajriba konusi, ona tili, adabiyot, jamoaviy ishlash.

Аннотация. В статье теоретически анализируется влияние групповой проектной работы на активность студентов на занятиях по родному языку и литературе. На основе теории кооперативного обучения Джонсона и Джонсона, модели «конуса опыта» Дейла и теории стадий развития группы Такмана изучаются механизмы повышения активности студентов при групповой проектной работе. Сравнительный анализ четко показал различия между индивидуальными заданиями и групповой проектной работой по 5 элементам кооперативного обучения. Результаты исследования теоретически обосновывают тот факт, что групповая проектная работа имеет значительное преимущество перед индивидуальными заданиями в повышении активности студентов.

Ключевые слова: групповой проект, активность студентов, кооперативное обучение, конус опыта, родной язык, литература, командная работа.

Abstract. The article theoretically analyzes the impact of group project work on student activity in native language and literature classes. Based on Johnson and Johnson's cooperative learning theory, Dale's "cone of experience" model, and Tuckman's theory of group development stages, the mechanisms of increasing student activity in group project work are studied. Comparative analysis clearly showed the differences between individual assignments and group project work in 5 elements of cooperative learning. The results of the study theoretically substantiate the fact that group project work has a significant advantage over individual assignments in increasing student activity.

Keywords: group project, student activity, cooperative learning, cone of experience, native language, literature, teamwork.

KIRISH

O‘quvchi faolligi zamonaviy ta’lim pedagogikasining markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Edgar Dale (1969) ning mashhur “tajriba konusi” (Cone of Experience) modeli o‘quvchi faolligining o‘rganish samaradorligiga bevosita ta’sirini aniq ko‘rsatib bergan. Bu modelga ko‘ra, o‘quvchi passiv tinglaganda materialni atigi 10–20% o‘zlashtiradi. O‘qigan materialning 30%, ko‘rgazmali materialning 50%, muhokama qilgan materialining 70%, real tajriba orqali o‘rgangan materialining 90% gacha esda qoladi. Bu nazariy model ta’lim jarayonida o‘quvchini imkon qadar faol ishtirokchi sifatida jalb etish zarurligini asoslab beradi.

Guruhli ishlash o‘quvchi faolligini oshirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida pedagogik adabiyotda keng e’tirof etilgan. David Johnson va Roger Johnson (1999) ning kooperativ ta’lim nazariyasi guruhli ishlashning beshta asosiy elementini aniqlagan: ijobiy o‘zaro bog‘liqlik, shaxsiy javobgarlik, yuzma-yuz muloqot, ijtimoiy ko‘nikmalar va guruh jarayonini tahlil qilish. Bu elementlarning har biri o‘quvchi faolligining turli jihatlarini rivojlantiradi.

Robert Slavin (1995) ning kooperativ ta'lim tadqiqotlari guruhli ishlashning akademik natijalar, o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar va o'z-o'zini hurmat qilish hissiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlagan. Slavinning ta'kidlashicha, guruhli ishlash ikki muhim shart bajarilganda samarali bo'ladi: guruh maqsadi (group goals) va shaxsiy javobgarlik (individual accountability).

Loyihaviy ta'lim kontekstida guruhli ishlash alohida ahamiyat kasb etadi. Loyiha tabiatan jamoaviy faoliyatdir: u bitta shaxsning kuchi bilan emas, balki bir necha kishining hamkorlikdagi sa'y-harakati bilan amalga oshadi. Krajeck va Shin (2014) ta'kidlaganidek, loyihaviy ta'limda guruh a'zolari turli vazifalarni o'z zimmasiga olib, umumiy maqsadga erishish uchun hamkorlikda ishlaydi. Bu jarayon nafaqat akademik bilimlarni, balki XXI asr ko'nikmalarini – kommunikatsiya, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik – rivojlantiradi.

Ona tili va adabiyot fanlari guruhli loyiha ishlari uchun alohida imkoniyatlarga ega. Sinf gazetasi yaratish, she'riy to'plam nashr etish, nutq tadqiqoti o'tkazish, adabiy asar sahnalashtirish, lug'at tuzish kabi loyihalar tabiatan guruhli faoliyatni talab qiladi. Bu faoliyatlar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini, muloqotga kirishish qobiliyatini va jamoaviy ishlash madaniyatini bir vaqtda rivojlantiradi.

O'zbekiston kontekstida guruhli loyiha ishlarining o'quvchilar faolligiga ta'siri maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi – ona tili va adabiyot darslarida guruhli loyiha ishlarining o'quvchilar faolligiga ta'sirini nazariy jihatdan asoslab berish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Nazariy tahlil doirasida kooperativ ta'lim, guruhli ishlash va loyihaviy ta'limga oid xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlar o'rganildi.

Tahlil uchun asosiy nazariy baza: 1) Johnson va Johnsonning kooperativ ta'lim nazariyasi (1999); 2) Slavinning kooperativ ta'lim modeli (1995); 3) Dale ning "tajriba konusi" modeli (1969); 4) Tuckman ning guruh rivojlanish bosqichlari nazariyasi (1965); 5) Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi (1978).

Qiyosiy tahlil uchun individual topshiriqlar va guruhli loyiha ishlari Johnson va Johnsonning beshta kooperativ ta'lim elementi bo'yicha taqqoslandi. Shuningdek, Dale modeliga asoslanib faollik darajalari va o'zlashtirish ko'rsatkichlari taqqoslandi.


NAZARIY TAHLIL NATIJALARI

Kooperativ ta'lim elementlari va guruhli loyiha ishlari. Johnson va Johnson (1999) ning beshta elementi guruhli loyiha ishlarida quyidagicha namoyon bo'ladi:

1-jadval

Kooperativ ta'lim elementlarining guruhli loyihada namoyon bo'lishi

Element	Ta'rifi	Guruhli loyihada	Individual topsh.
Ijobiy bog'liqlik	Guruh a'zolari bir-biriga bog'liq	Vazifalar taqsimlangan, har kim kerak	Bog'liqlik yo'q
Shaxsiy javobgarlik	Har bir a'zo javobgar	Har kim o'z vazifasi uchun javob beradi	Faqat o'z bahosi uchun
Yuzma-yuz muloqot	Bevosita muloqot	Muhokama, muzokara, fikr almashish	Muloqot minimal
Ijtimoiy ko'nikmalar	Hamkorlik madaniyati	Tinglash, hurmat, kompromiss	Rivojlanmaydi
Guruh tahlili	Jarayonni baholash	Refleksiya, nima yaxshi/yomon bo'ldi	Mavjud emas



1-chizma. Kooperativ ta'lim elementlarining individual va guruhli loyiha ishlarida namoyon bo'lishi

1-jadval va 1-chizmadan ko'rinib turibdiki, kooperativ ta'limning barcha beshta elementi guruhli loyiha ishlarida to'liq namoyon bo'ladi, individual topshiriqlarda esa faqat qisman (shaxsiy javobgarlik) yoki umuman namoyon bo'lmaydi. Bu nazariy tahlil guruhli loyiha ishlarining o'quvchi faolligini oshirishdagi ustunligini aniq ko'rsatib beradi.

Dale ning "tajriba konusi" modeli va o'quvchi faolligi. Dale (1969) ning modeliga ko'ra, ta'lim faoliyatlarini passivdan faolagacha quyidagi ierarxiya bo'yicha joylashtirish mumkin:

2-jadval.

Dale modeli bo'yicha ta'lim faoliyatlari tahlili

Faoliyat turi	O'zlashtirish (%)	An'anaviy darsda	Guruhli loyihada
O'qish	10%	Asosiy usul	Qo'shimcha
Tinglash (ma'ruza)	20%	Asosiy usul	Kam
Ko'rgazmali material	30%	Qisman	Qo'llaniladi
Namoyish ko'rish	50%	Kam	Qo'llaniladi
Muhokama, taqdimot	70%	Kam	Asosiy usul
Real tajriba, yaratish	90%	Deyarli yo'q	Asosiy usul

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, an'anaviy darsda asosiy faoliyatlar o'qish va tinglash (10–20% o'zlashtirish) bo'lsa, guruhli loyihada asosiy faoliyatlar muhokama, taqdimot va real tajriba (70–90% o'zlashtirish) hisoblanadi. Bu 4–9 baravar farqni tashkil etadi.

Tuckman ning guruh rivojlanish bosqichlari. Bruce Tuckman (1965) guruh rivojlanishining to'rtta bosqichini aniqlagan: shakllanish (forming), ziddiyat (storming), normalashuv (norming) va samarali ishlash (performing). Loyihaviy faoliyatda bu bosqichlar tabiiy ravishda kuzatiladi. Dastlabki loyihalarda guruh a'zolari bir-birini taniydi va vazifalarni taqsimlaydi (shakllanish). Keyingi bosqichda fikr farqlari va ziddiyatlar yuzaga keladi (ziddiyat). Uchinchi bosqichda guruh ish qoidalari va normalarini ishlab chiqadi (normalashuv). Nihoyat, to'rtinchi bosqichda guruh samarali va uyg'un tarzda ishlaydi (samarali ishlash).

Bu nazariy model loyihaviy ta'limda guruhli ishlashning birinchi darslardayoq mukammal bo'lmashligini, vaqt o'tishi bilan samaradorlik oshib borishini tushuntiradi.

Vigotskiyning ZPD nazariyasi va guruhli ishlash. Vigotskiy (1978) ning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi guruhli loyiha ishlarining samaradorligini tushuntirishda muhim rol o'ynaydi. ZPD ga ko'ra,

o'quvchi mustaqil bajara olmaydigan, lekin kattalar yoki yuqori darajali tengdoshlarning yordamida bajara oladigan topshiriqlar uning rivojlanishini eng samarali tarzda ta'minlaydi. Guruhli loyiha ishlarida bu mexanizm tabiiy ravishda amalga oshadi: yuqori darajali o'quvchilar past darajali tengdoshlariga yordam beradi, tushuntiradi, yo'naltiradi. Bu jarayondan ikkala tomon ham foyda ko'radi: past darajali o'quvchi yangi bilim va ko'nikmalar o'rganadi, yuqori darajali o'quvchi esa bilimini mustahkamlaydi va o'qitish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

MUHOKAMA

Nazariy tahlil natijalari guruhli loyiha ishlarining o'quvchilar faolligiga ta'sirini bir necha jihatdan asoslab berdi. Birinchidan, Johnson va Johnson (1999) ning kooperativ ta'lim elementlari guruhli loyiha ishlarida to'liq namoyon bo'ladi, individual topshiriqlarda esa faqat qisman. Bu guruhli loyihaning o'quvchi faolligini oshirishdagi hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, Dale (1969) ning "tajriba konusi" modeli asosida, guruhli loyihada o'quvchi faol ishtirok etish (muhoqama, taqdimot, yaratish) zonasida bo'ladi va materialni 70–90% gacha o'zlashtiradi. An'anaviy darsda esa o'quvchi asosan passiv zonada (tinglash, o'qish) qoladi va materialni 10–20% o'zlashtiradi. Bu 4–9 baravar farqni tashkil etadi.

Uchinchidan, Tuckman (1965) ning guruh rivojlanish bosqichlari nazariyasi guruhli ishlashning vaqt o'tishi bilan samaraliroq bo'lib borishini tushuntiradi. Bu o'qituvchilarga birinchi loyihalarda sabrli bo'lish va guruhga shakllanish uchun vaqt berish zarurligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, Vigotskiy (1978) ning ZPD nazariyasi guruhli loyihada turli darajali o'quvchilarning bir-biriga ijobiy ta'sir ko'rsatishini izohlaydi. Bu loyihaviy ta'limning inkluziv tabiatini – barcha darajadagi o'quvchilarga foyda keltirishini – asoslab beradi.

Ona tili va adabiyot fanlari guruhli loyiha ishlari uchun alohida qulay muhit yaratadi. Sinf gazetasi yaratishda muxbir, muharrir, dizayner, fotograf rollari tabiiy ravishda taqsimlanadi. She'riy to'plam nashr etishda har bir o'quvchi o'z she'rini yozadi, guruh esa tanlash, tahrirlash va dizayn vazifalarini bajaradi. Nutq tadqiqotida intervyu olish, ma'lumot qayta ishlash, hisobot yozish vazifalari guruh a'zolari o'rtasida taqsimlanadi.

Tadqiqot cheklanishlari: nazariy tahlil amaliy tadqiqot bilan to'ldirilishi kerak. Kelgusida kvazi-eksperimental dizayn asosida guruhli loyiha ishlarining o'quvchi faolligiga ta'sirini miqdoriy o'lchash tavsiya etiladi.

XULOSA

Tadqiqot ona tili va adabiyot darslarida guruhli loyiha ishlarining o'quvchilar faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini nazariy jihatdan asoslab berdi. Asosiy xulosalar: 1) kooperativ ta'limning barcha beshta elementi guruhli loyiha ishlarida to'liq namoyon bo'ladi; 2) Dale ning "tajriba konusi" modeliga ko'ra, guruhli loyihada o'zlashtirish darajasi an'anaviy darsga nisbatan 4–9 marta yuqori; 3) Tuckman modeli guruhli ishlashning bosqichma-bosqich samaraliroq bo'lib borishini tushuntiradi; 4) Vigotskiy ZPD nazariyasi guruhli loyihaning barcha darajadagi o'quvchilarga foydali ekanligini asoslaydi; 5) ona tili va adabiyot fanlari guruhli loyiha ishlari uchun eng qulay fanlar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Johnson, D.W., Johnson, R.T. (1999). Learning Together and Alone. Allyn & Bacon.
2. Dale, E. (1969). Audiovisual Methods in Teaching. Dryden Press.
3. Slavin, R.E. (1995). Cooperative Learning. Boston: Allyn & Bacon.
4. Tuckman, B.W. (1965). Developmental sequence in small groups. Psychological Bulletin, 63(6).
5. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society. Harvard University Press.
6. Krajcik, J.S., Shin, N. (2014). Project-Based Learning. Cambridge Handbook.
7. Thomas, J.W. (2000). A Review of Research on PBL. Autodesk Foundation.
8. Polat, E.S. (2010). Novye pedagogicheskie tekhnologii. Moskva.
9. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
10. Kilpatrick, W.H. (1918). The Project Method. Teachers College Record, 19(4).
11. Robinson, K. (2011). Out of Our Minds. Capstone Publishing.

12. Blumenfeld, P.C. et al. (1991). Motivating PBL. Educational Psychologist.
13. Qodirov, P. (2015). Ona tili ta'limi metodikasi. Toshkent.
14. Yo'ldoshev, J.G'. (2005). Pedagogik texnologiyalar. Toshkent.
15. Nurmonov, A. (2012). O'zbek tilshunosligiga kirish. Toshkent.
16. Matchanova, Z. (2019). Loyihaviy ta'lim texnologiyalari. Toshkent.

